

O'ZBEK TILI FE'L ZAMONLARINI O'QITISHDA ELEKTRON BAZA YARATISH

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/RXVW4247

Nozima Abduqodirova¹

Xurshida Kadirova²

Abstrakt

Maqola o'zbek tili ta'limining metodologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda elektron ba'za yaratish masalasi ko'tarilgan. Tadqiqotchi ushbu masalani yoritishda fe'l zamonlari mavzusidan foydalangan. O'zbek tili ta'limida fe'l murakkab mavzu sanaladi, shu ma'noda maqola dolzarblik kasb etadi. Muallif, mavzu o'zga til vakillarining idroki bilan aloqador bo'lagligi sababli tadqiqot ishini qiyosiy-tipologik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, lingvokulturologik mezonlar asosida tahlil, tasnif, tavsif metodlarini qo'llagan. Ishning obyekti o'zbek tilining fe'l zamonlari, predmeti mavzu uchun metodologik elektron ba'za yaratish hisoblanadi. Ishda olingan natijalarga ko'ra namunalar keltiriladi: rasm va jadvallar bilan asoslanadi. Bu borada qilingan ishlar tahlilga tortiladi. Maqolada mazkur 5 bosqichli metodik ishlanma o'zga tilli guruhlar uchun mo'ljallanganligi xulosalangan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, fe'l zamonlari, dars ishlanmasi, o'yin metodi, test yaratish, elektron ba'za.

KIRISH

Mamlakatimizda o'zbek tili ta'limi bo'lgan munosabat bugungi kunda siyosiy darajaga ko'tarilib borilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tili – xalqimiz uchun milliy

¹ *Nozima Abduqodirova Tavakkal qizi* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili magistratura mutaxassisligi magistranti.

E-manzil: abduqodirovanozima@navoiy-uni.uz

ORCID: 0009-0004-3962-6198

² *Kadirova Xurshida Batirovna* – filologiya fandlari nomzodi, dotsent, **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat** o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrası dotsenti.

E-manzil: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

Iqtibos uchun: Abduqodirova, N. T., Kadirova, X.B. 2023. "O'zbek tili fe'l zamonlarini o'qitishda elektron baza yaratish". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2(5): 65-76. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/RXVW4247

o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir" – degan so'zlari va 2019-yil 21-oktyabridagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonida o'z aksini topgan. Bu esa, o'z o'rnida o'zbek tili ta'limi yo'nalishi hodimlariga katta vazifa yuklaydi. Ushbu vazifalari ijrosi sifatida, xalqaro tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumotnomasi (CEFR – The Common European Framework of Reference for Languages) darajalanish tizimiga asosida o'zbek tili darajalari asosida ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga "O'zbekona"¹, "Uzbek school"² loyihalari misol bo'la oladi.

O'zbek tili morfologik va sintaktik jihatdan o'ziga xosliklarga ega. Ma'lumki, o'zbek tilining o'zga til guruhlariga fe'lni o'qitish murakabliklarga ega. Fe'l zamonlari o'zining turlari bilan boshqa tillardan farqlanadi. Buni qanday o'qitish tarzi o'zga til vakili uchun idrok masalasi darajasida bo'lib, metodologik yondashuvlarni talab etadi. Shuning uchun, fe'l so'z turkumi bilan bog'liq mavzular dolzarblik kasb etadi. G. Shermatova o'z maqolasida "Fe'lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligini hisobga olinadi" – deydi. [Shermatova 2021] Bu esa o'zbek tili ta'limida fe'l zamonlarining o'zni qanchalik muhimligini isbotlaydi.

Fe'l bir necha kategoriyaga ega bo'lib, ularni aktiv va passiv kategoriyalarga bo'lish mumkin. *Aktiv* – ko'p tillarda mavjud kategoriyalar, *passiv* – ayrim tillarda mavjud xususiy kategoriyalardir. Shu ma'noda o'zbek tilida ham mavjud *mayl*, *shaxs-son* va *zamon* kategoriyalarini o'qitish masalasi bir necha murakabliklarga ega. Fe'lga oid so'zlarning qariyb barchasida har uchala kategoriya ishtirok etadi. Fe'l esa o'z o'rnida gapning yadrosi hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, gaplarni to'g'ri tuzish va tinglovchiga ravon nutq taqdim etish uchun fe'l va uning zamonlarini mustahkam egallash lozim.

ASOSIY QISM

Fe'l zamonlarining asosiylari har bir tilda 3 xil bo'lib, ba'zi bir tillarda har uch zamonning ichida yana bo'linishlar mavjud. Masalan, o'zbek tilida 12 ta zamon turi mavjud, ingliz tilida bu 14 taga yetgan, rus tilida esa, 3 zamon o'z holida saqlangan. Rus va ingliz tilida jins

¹ <https://uzreport.news/society/ozbekona-xorijliklarga-ona-tilimizni-orgatuvchi-yangi-darslik-yaratildi>

² <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/28/uzbek-school/>

kategoriyasi mavjud bo'lgani uchun fe'llar o'zbek tiliga qaraganda bu jihatdan ham tuslanadi.

O'zbek tilida, fe'l zamonlari asosiy 3 qismga bo'linadi: o'tgan, hozirgi va kelasi zamon. Adabiyotlarda [Qodirova 2020; Yuldasheva 2018] o'tgan zamonning 5 turi ajratiladi: yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya, o'tgan zamon maqsad va o'tgan zamon davom fe'llari shular jumlasidan. Hozirgi va kelasi zamon fe'llari esa har biri ikki turdan iborat. Hozirgi zamon davom, hozirgi-kelasi zamon fe'llari hozirgi zamon fe'lga kirs, kelasi zamon gumon va kelasi zamon maqsad fe'li kelasi zamon fe'lga xosdir. O'zga tilli guruhlar uchun ma'lum bir to'siqlarni yuzaga keltiradi. Chunki, har biri muayyan grammatik ko'rsatkichlarga ega.

Biz yuqoridagi ma'lumotlarni asos qilib olgan holda, fe'l zamonlarini o'zga til vakillari uchun o'qitishning elektron bazasini yarashishni maqsad qildik. Bu borada ilk qadamni o'qituvchi o'zi foydalana olishi uchun texnologik xarita (dars ishlanmasi) yaratishdan boshlanadi. Demak, tadqiqot ishimiz bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqich. Dars ishlanmada avvalo, darsning mavzusi va uning maqsadini berish uchun xizmat qiladi. So'ng, darsning tasimoti, o'qituvchi va o'quvchilarning qilinishi kerak bo'lgan ishlari ketma-ketlikda yozildi. Mazkur tadqiqotda, darsning borishi izchilligini saqlash maqsadida "Bolalik" mavzusida matn tayyorlangan bo'lib, unda matnning tushunilganligi va fe'l zamonlarining barchasi ishlatilganligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Shunga ko'ra, dars lingvistik ko'nikmalarni **o'qib tushunish** bo'limidan boshlanadi. Matn bilan ishlanadi va notanish so'zlar tushuntiriladi. **Yozish** ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar bajarilganidan so'ng, grammatik mavzuga o'tiladi. Grammatik mavzu taqdimot shaklida berilishi, tinglovchini qiziqishini yanada oshiradi. Fe'l zamonlarini gapda ajratib olish uchun "Signal so'zlar" jadvali taqdim etilishi maqsadga muvofiq, bu esa o'quvchining topshiriqlarni bajarishida qo'l keladi. **Tinglab tushunish** bosqichida barcha lingvistik ko'nikmalar qo'llanilib bo'lgach, dars o'yin orqali mustahkamlanadi. Darsdan olingan bilimlarni sinash uchun o'quvchilarga test topshirig'i taqdim etiladi. Test sinovi javoblari olinib, baholanadi. So'nggi bosqich, o'quvchilar mavzu doirasida mustaqil o'rganishlari uchun elektron manbaalar, audio va video havhalar ro'yhati taqdim etiladi. Uyga vazifa o'rnida krossvord topshirig'i beriladi.

Ko'rib turganimizdek dars tashkil etishda lingvistik ko'nikmalarni qamrab oluvchi barcha texnologik xaritada ko'rsatilgan dars

shakllari elektron shaklda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan bo'lishi lozim. Shuning uchun dars ishlanmasi muhim hisoblanadi. Texnologik xarita yakunlangach, shakllantirilgan ko'nikma, audio va video matnlar, tuzilgan savol, topshiriqlar va kutilayotgan natija sarhisob qilingan bo'lishi lozim.

Til ta'limida bunday metodologiya yaratish o'qituvchining dars o'tish mahoratini belgilaydi. Shu bilan birgalikda, o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan qiziqishlari mutanosibligida har bir mavzuni mukammal o'rganish imkoni yaratiladi. Namunadagi word format hujjatida mazkur darsning elektron bazasi uchun havola berish imkoni ko'rsatilgan (1-jadval).

Namuna:

(1-jadval)


Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
1-bosqich Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1.1. Avval o'tilgan mavzu hamda yangi mavzu doirasida dastlabki umumiy tasavvurlarni faollashtiruvchi savollar orqali talabalar faolligi "Aqliy hujum" savollari yordamida oshirib olinadi.	Tinglaydilar, munozarada ishtirok etadilar
	1.2. Mavzu doirasi matn o'qitiladi. Og'aki nutqni rivojlantirish maqsadida o'qitiladi. Matndan olingan hulosalar umumlashtiriladi. Notanish so'zlar ustida ishlanadi.	O'qiydilar, yozadilar, tinglaydilar
	1.3. O'g'zaki nutq doirasida mashqlar bajariladi.	
2-bosqich Asosiy bo'lim (50 daqiqa)	2.1. Yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha umumiy matn asosida matn tuzishadi.	Yozadilar
	2.2. Mashqlar ketma-ket ravishda davom etadi.	Darsda ishtirok etadilar
	2.3. Grammatik mavzu taqdimot orqali tanishtiriladi. Mavzu "Fe'l zamonlari" bo'lib, har bir zamon strukturasi o'rganiladi.	Tinglaydi va tushunadi
	2.4. Fe'l zamonlarini gapdan ajratib olish uchun tarqatma materiallari beriladi.	Tarqatmalar bilan tanishadi
	2.5. Taqdimot asosida tuzilgan yozma va og'zaki mashqlar bajariladi.	Darsda ishtirok etadilar
	2.6. Tinglab tushunish uchun berilgan audio tinglanib, qo'llanilgan fe'llarni sanatiladi.	Tinglaydi va mashqni bajaradi

	2.7. Mavzuni umumlashtirgan holda mavzuga oid o'yin o'tkazadi.	Darsda ishtirok etadilar
3-bosqich Yakunlovchi (10 daqiqa)	3.1. Darsdan olingan bilimlarni baholash maqsadida mavzuga oid test topshirig'i beriladi va baholanadi.	Testga kiriladi va bajariladi
	3.2. Mustaqil foydalanish uchun sayt va manbaalar beriladi.	Yozadilar
	3.3. Mustaqil bajarish uchun topshiriq beriladi.	Vazifa oladi

Ikkinchi bosqich. Har bir dars jarayonini tushunarli va mazmunlilikini ta'minlash uni shakllantirishga bog'liq bo'lgani kabi, o'quvchining mavzuni to'liq egallashida taqdimotning o'rni beqiyos. Shu bois, taqdimot yaratayotganimizda harflar va suratlardan unumli foydalanish maqsadida ko'zga tez tushuvchi, diqqatini charchatuvchi vositalardan voz kechish talab etiladi. Uning o'rniga tinglovchi uchun diqqatni jamlovchi, ko'zlarni charchatmaydigan va yosh chegarasini hisobga olgan holdagi surat va shriftlardan foydalanish o'rinli. Suratlarni joylashtirishda esa, "25-kadr" metodidan foydalanib, har bir uzvni mavzuga moslashtirgan holda tanlash joiz. Ma'lumki, 25-kadr metodi nafaqat o'quvchilar balki barcha tinglovchilar xotirasida ko'rgan lavhasida yashirin ma'lumotlarni berish va ongostida saqlashga yordam beradi. Shu bois, suratlarimiz ham, qo'llanilgan belgilar ham, fe'l zamonlariga oidligini e'tiborga olinadi. Taqdimot jarayonini yanada qiziqarli o'tkazish maqsadida, animatsion funksiyalar va ovozli texnikalardan foydalanish maqul (1-2-rasm).



(1-rasm)



(2-rasm)

Rus va ingliz tillarida zamonlarni aniqlash uchun signal so'zlar mavjud bo'lib, bunday tajribani o'zbek tilida ham qo'llash samarali hisoblanadi. Shu bois, signal so'zlar jadvalini tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ko'zda tutilgan maqsad, o'quvchilarning solishtirishi va tahlil qila olishi; mashq va topshiriqlarda asos bo'lib xizmat qilishi; gap tuzishdagi so'z boyiligini oshirishni taminlashdir (3-rasm).

Zamonlarni ajratish uchun signal so'zlar		
Nº	Zamonlar	Signal so'zlar
1	O'tgan zamon	kecha, boya, o'tgan ... (kun, oy, yil, asr), o'zgina oldin, sal avval, avval, bir ... (kun, oy, yil) oldin, 2022-yilda
2	Hozirgi zamon	hozir, endigina, odatda, hech qachon, har ... (kuni, oyda, yilda, vaqt), tez-tez, umuman, bazida
3	Kelasi zamon	ertaga, kechqurun, tunda, kelasi ... (kun, oy, yil, hafta, asr), ... (son + kun, oy, yil, asr, hafta) dan so'ng, (kun, oy, yil, hafta, asr) dan keyin, 2024-yilda

(3-rasm)

Uchinchi bosqich. O'quvchilarni yozma va og'zaki nutqini o'stirish, imlo savodxonligini oshirish, fikrlash doirasini kengaytirish, erkin va mustaqil fikrlashiga imkon yaratish uchun mustahkamlash qismini tayyorlash maqsadga muvofiq. Taqdimot o'tilgandan so'ng tinglovchi olgan bilimlarini mustahkamlash va darsda nafaol o'quvchilarni darsga jalb qilish uchun o'yin tarzidagi topshiriq samarali hisoblanadi. PowerPoint dasturining imkoni keng bo'lib, u orqali yaratilgan o'yinda, avallo, o'quvchilarni kayfiyatini oshiruvchi zamonaviy musiqa qo'yish mumkin (4-rasm). Mavzudan chetga chiqmagan holda, fe'l zamonlarini ifodalovchi rasmlar bilan boyitilishi va yuqorida aytilgan talablar (25-kadr metodi, shrift, rang-tasvir, tovushlar va suratlar)ga mos ravishda ishlanishi tinglovchi diqqatini jalb etadi.




(4-rasm)


Tavsiyalar: O'yinda minimal 8 ta savol, har birida kamida 2 tadan javob varanti mavjud bo'lishi lozim. O'quvchilar javobni va shu zahoti asl javobni bilib olishlari mumkin. Masalan, "Ertaga shaharga ketyapman." Ushbu gap hozirgi yoki kelasi zamonda? O'quvchi: "hozirgi zamon" - dedi deylik, noto'g'riligini bildiruvchi smayl rasm chiqadi. Agar "kelasi zamon" tanlansa, avtomotik tarzda to'g'riligini tasdiqlovchi rasm jonlanadi (5-6-7-rasm).



(5-rasm)




(6-rasm)



(7-rasm)

To'g'ri va noto'g'ri javob uchun jahonda hozirgi kunda qo'llanilayotgan tovushlardan foydalanilish ayni mudao. Har bir javob uchun jonlanuvchi rasm zamonaviy bo'lib, ishtirokchini yanada qiziqishini oshirishni taminlaydi. Taqdimot varag'ida alohida ortga va oldinga belgi bo'lib, u orqali xato javoblarni tekshirish imkoniyati mavjud. Bu topshiriq uchun o'quvchilar baholanmaydi balki, o'zlari olgan bilimlarni yanada mustahkamlashiga xizmat qiladi. O'yin tinglovchini nazorat qilish bilan bir qatorda, o'qituvchi bilan masofani yaqinlashtiradi. Dars davomida aqliy faoliyatdan chalg'ishtirish va boshqa qiziq yo'l orqali mavzu mustahkamlanadi. Darsga bo'lgan motivatsiyasi oshadi.


To'rtinchi bosqich. Darsning muhim qismi bu nazorat hisoblendi. Nazoratning tez va adolatli o'tkazilishini ta'minlovchi qulay metoddir. Shu ma'noda zamonaviy o'qituvchi har bir modulga xos testlar bazasiga ega bo'lmog'i va elektronlashtirilganligi katta ahamiyatga ega. Mazkur "fe'l zamonlari" mashg'uloti so'ngida o'quvchilarni baholash lozim va shuning uchun zamonaviy topshiriq tayyorlash kerak bo'ladi. Mazkur testning namunasini quyidagi shaklda berish mumkin. "EasyQuizzy" platforma orqali nafaqat bir variantli test balki, moslashtirish, tartiblash, yozish, ko'p javobli test turlaridan ham foydalanish mumkin (8-rasm). Masalan:




I. Iboralarni moslashtiring. Sizga 4 ta o'zbek, 4 ta rus tilidagi sinonim iboralar taqdim etiladi. Uni, joylarini o'zgartirib moslashtirish mumkin. (9-rasm)

II. 4 ta gap yozilgan siz uni ketma-ketlikda joylashingiz kerak. 1. Kecha istimam chiqdi. 2. Kunduzi yomg'ir yog'di. 3. Ertalab darsga bormadim. 4. Yomg'irdan so'ng kamalak chiqdi (10-rasm).


III. "Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i" iborasi manosini yozing. Bu yopiq testga misol bo'la oladi (11-rasm).



(9-rasm)




(10-rasm)



(11-rasm)

Bu dastur bilan ishlashning qulayliklari shundaki, rasm, video, animatsion suratlarni qo'yish, to'g'ri javobni belgilashda dasturning o'z variantini aralashtirib berish, bajaruvchilar miqdori qanchaligidan qat'iy nazar o'z algoritmi asosida turli variant va savollarni o'zgartirib berish imkoni mavjud. Uning hamma uchun ochiqligi ham muhim safatidandir. Test bajarib bo'lgan nechta tog'ri javob foizi bilan ko'rsatiladi va ishtirokchi qaysi savolda xato qilganini ko'ra olish huquqiga ega. Kelasi darsga tayyorlanish va takrorlash maqsadida krossvord topshirig'ini tayyorlash mumkin. Bu esa o'quvchilarning doimiy tayyorlayotgan uyga vazifalaridan farq qiladi, o'qituvchining yutug'i ham shunda. Bir xillikdan charchagan til o'rganuvchilariga qiziqarli milliy rasmlar asosida fe'llarni tushlash vazifasi yuklatiladi. Masalan, vazifaning sharti shundan iborat bo'ladiki, krossvord uch qismdan *kecha*, *bugun* va *ertagadan* tashkil topadi (12-rasm).

"Kecha" bo'limida 3-shaxs birlik o'tgan zamon, "Bugun" bo'limida 3-shaxs birlik hozirgi zamon, "Ertaga" bo'limida 3-shaxs birlik kelasi zamon fe'lida tushlash vazifa qilib berilgan. Surat ostida sonlar ketma-ketligida bajarilib boriladi. O'quvchi suratlar bilan bajarib bo'lganini ham sezmay qoladi.



(12-rasm)

Beshinchi bosqich. O'quvchi darsdan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashi, uyda yoki boshqa faoliyati davomida topa oladigan va qidiruvlar vaqtida nohush holatlar yuz berishini oldini olish maqsadida o'qtuvchi mavzuga oid saytlar ro'yhatini tayyorlashi lozim. O'quvchilar juda zukko va qiziquvchanligini hisobga olgan holda, o'zbek millatiga xos va yosh chegarasini hisobga olgan hol-

da kino va qo'shiqlarni ham tavsiya etish maqsadga muvofiq. Bu ro'yhatga "Meros", "Ilhaq", "O'zbek qizi" kabi milliy mental ruh ufurib tugan film va Ozodbek Nazarbekovning "Mendirman o'sha", Ozoda Nursaidovanning "Ajdodlar" nomli o'zbek tarixi aks etgan qo'shiqlarini kiritish tavsiya etiladi. Bu o'quvchiga milliy madaniy muhitni tanishga, ajdodlar faoliyatini o'rganish imkonini yaratadi, o'zga til vakiliga millatning yorqin qirralarini ko'rsatishga yordam beradi.

XULOSA

Yuqorida berilgan elektron ba'za orqali rusiyzabon tinglovchilarga dars o'tishimiz mumkin. Ammo xorijliklarga bu usulda dars o'tish biroz qiyin bo'lishi mumkin. Sababi, O'zbekiston Respublikasida rus tili norasmiy til sifatida ta'lim tili hisoblanadi va o'zga til vakili uchun Davlat tili darslari mavjud. Rus guruhlar 10 yil davomida maktab dasturi asosida o'zbek tilini o'rganadi. Agar Yevropa til bilish darajalari miqyosida qarasak, maktabni bitirgan o'quvchilar B2 darajadan o'qishni davom ettirishlari lozim. Xorijlik til o'rganuvchilarga bu mavzularda dars o'tish muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ular uchun o'zbek tili yangi muhit va so'zlashuv uslublari tarzida A1 darajadan boshlanishi lozim. Shu bois ularga oldin o'zbek tili haqida, uning madaniyati, urf-odatlar, o'xshash va zid holatlarni o'rgatish orqali tilni singdirish lozim.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalarga bu metodologiya orqali mavzuni bayon qilish nafaqat talabani balki, pedagog-o'qituvchilarning ishlarini yanada yegillashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari Oliy ta'lim muassasalari nofilologik yo'nalishlari uchun o'qitilishi rejalashtirilgan 1 semestrlik vaqtning o'zida talaba o'z bilimlarini mustahkamlaydi, yangi bilimlar o'rganadi va sohasi doirasida erkin davlat tilida fikr bildiradi oladigan darajaga ko'tariladi.

Adabiyotlar

- Asilova G. Qudriddinova N.* 2018. O'zbek tili. – Toshkent: Yosh kuch, – 212 b.
- Beysenova A., Kadirova X.* 2023. Mashg'ulotlarda o'zbek va rus tillaridagi turg'un birikmalarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili // ORIENSS. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mashg-ulotlarda-o-zbek-va-rus-tillaridagi-turg-un-birikmalarning-lingvokulturologik-qiyosiy-tahlili>
- Kadirova, X.B.* 2022. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ta'lim sifatini belgilovchi omillar // International scientific journal of Biruni. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilini-xorijiy-til-sifatida-o-qitishda-ta-lim-sifatini-belgilovchi-omillar>
- Qodirova X.* 2020. O'zbek tili. – Toshkent: Navro'z. – 360 b.

- Shermatova G.* 2021. Fe'l zamon shakllarining o'qitilishida mavzuvii izchillikning ahamiyati // Academic research in educational sciences. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fe-l-zamon-shakllarining-o-qitilishida-mavzuvii-izchillikning-ahamiyati>
- Usmonov J. Nurmurodov O.* 2008. Muxtasar grammatika. – Buxoro: Durдона, – 219 b.
- Yuldashev M.* 2018. Ozbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: Fan va ta'lim, – 176 b.
- Шуринова Е. Т.* 2023. Некоторые соображения о коммуникации вопросы прикладной филологии // Узбекистан: язык и культура. – Ташкент, №1(5): С. 84-91. https://tsuull.uz/sites/default/files/2023_1.pdf.

CREATION OF AN ELECTRONIC BASE FOR TEACHING VERB TENSES OF THE UZBEK LANGUAGE

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/RXVW4247

Nozima Abdukadirova¹

Khurshida Kadirova²

Abstract

The article is devoted to the methodology of teaching the Uzbek language, which raises the issue of creating an electronic database. To clarify this issue, the researcher used the topic of verb tenses. The verb is considered a difficult topic in teaching the Uzbek language, in this sense the article is relevant. Due to the fact that the topic is related to the perception of representatives of foreign languages, the author used methods of analysis, classification and description based on comparative typological, sociolinguistic, psycholinguistic, linguocultural criteria of research work. The

¹ *Nozima Abdugadirova Tavakkal girl* - 1st-level masters student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Uzbek language graduate student in foreign language groups.

E-mail: abduqodirovanozima@navoiy-uni.uz

ORCID: 0009-0004-3962-6198

² *Kadirova Khurshida Batirovna* – Candidate of Philological Sciences, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Associate Professor of the Department of Uzbek Language Education in Foreign Language Groups.

E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

For reference: Abdugadirova N.T., Kadirova H.B. 2023. "Creation of an electronic base for teaching verb tenses of the uzbek language". Uzbekistan: language and culture. Issues of practical philology. 2(5): 65-76. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/RXVW4247

object of the work is the tenses of verbs of the Uzbek language, the subject of which is the creation of a methodological electronic database on this topic. The results are presented based on the results obtained in the work: they are supported by figures and tables. The work done in this direction is analyzed. The article concludes that this 5-step methodological development is intended for groups of foreign languages.

Key words: *Uzbek language, verb tenses, lesson development, game method, creation of tests, electronic database.*

Reference

- Asilova G. Qudriddinova N.* 2018. O'zbek tili. – Toshkent: Yosh kuch, – 212 b.
- Beysenova A., Kadirova X.* 2023. Mashg'ulotlarda o'zbek va rus tillaridagi turg'un birikmalarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili // ORIENSS. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mashg-ulotlarda-o-zbek-va-rus-tillaridagi-turg-un-birikmalarning-lingvokulturologik-qiyosiy-tahlili>
- Kadirova, X.B.* 2022. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ta'lim sifatini belgilovchi omillar // International scientific journal of Biruni. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilini-xorijiy-til-sifatida-o-qitishda-ta-lim-sifatini-belgilovchi-omillar>
- Qodirova X.* 2020. O'zbek tili. – Toshkent: Navro'z. – 360 b.
- Shermatova G.* 2021. Fe'l zamon shakllarining o'qitilishida mavzuviy izchillikning ahamiyati // Academic research in educational sciences. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fe-l-zamon-shakllarining-o-qitilishida-mavzuviy-izchillikning-ahamiyati>
- Usmonov J. Nurmurodov O.* 2008. Muxtasar grammatika. – Buxoro: Durдона, – 219 b.
- Yuldashev M.* 2018. Ozbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: Fan va ta'lim, – 176 b.
- Shirinova Ye. T.* 2023. Nekotorie soobrajeniya o kommunikatsii voprosi prikladnoy filologii // Uzbekistan: yazik i kultura. – Tashkent, №1(5): S. 84-91. https://tsuull.uz/sites/default/files/2023_1.pdf.